

MUSULMON DUNYOSIDA FITNA VA IXTILOFLARNING BOSHLANISHI HAMDA ULARNING QIYOSIY ILMIY TAHLILI

Rixsiboyev Azimjon

Imom Buxoriy nomidagi

Toshkent islom instituti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu mavzuda musulmon dunyosida fitna va ixtiloflarning paydo bo‘lish sabablari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, Islom olamidagi ilk yirik fitnaning boshlanishi xalifa Umar ibn Xattob roziyallohu anhuning shahid qilinishlari bilan bog‘liq ekani yoritiladi. Shuningdek, u zotning kuchli siyosati davrida jamiyatdagi barqarorlik va intizomning yuqori darajada bo‘lgani, ammo keyingi davrlarda ijtimoiy-siyosiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan ichki nizolar uchun zamin yuzaga kelgani bayon etiladi.

Mavzuda xalifa Usmon ibn Affon roziyallohu anhu davrida tashqi tahdidlar bartaraf etilgan bo‘lsa-da, ichki fitnalarning kuchaygani, turli guruhlar va g‘arazli shaxslarning yashirin faoliyati jamiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatgani ochib beriladi. Ayniqsa, yangi musulmon bo‘lgan xalqlar, turli aqidaviy qarashlar va nifoq urug‘ini sochgan shaxslarning ta’siri fitnaning chuqurlashuviga sabab bo‘lgani ta’kidlanadi.

Mazkur ish orqali Islom tarixidagi muhim burilish nuqtalari, sahobalar davridagi siyosiy qarorlar va ularning oqibatlari haqida umumiy tasavvur berilib, fitna va ixtiloflarning kelib chiqish omillari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Islom tarixida fitna, Umar ibn Xattob shahidligi, Usmon ibn Affon davri, Ichki siyosiy nizolar, Abdulloh ibn Saba’ harakati, Ali ibn Abu Tolib xalifaligi, Muoviya ibn Abu Sufyon, Al-Bidoya van-Nihoya asari, Tarixut Tabariy

Kirish

Islom olamidagi katta fitnaning uchi xalifa Umar ibn Xattob roziyallohu anhuga g‘arazgo'y kuchlar tomonidan suiqasd uyushtirilib, u kishining o‘ldirilishlaridan boshlangan edi. Hazrati Umar roziyallohu anhuning olib borayotgan muzaffar siyosatlari

ko'pchilik dushmanlarning "jigarini yeb borayotgan" edi. Ular Islomning butun yer yuzi bo'ylab yashin tezligida tarqalib borayotganini mutlaqo ko'ra olmas edilar. Xuddi ana shunday kuchlar hazrati Umarning vafotlaridan keyin Rum va Fors tomonlarda qurolli xurujlar qilib, Islom jamiyati qaramog'idan chiqib, eski tuzumlarini qayta o'rnatmoqchi bo'lishdi. Ammo xalifa Usmon ibn Affon roziyallohu anhu ularning bu xurujlarini o'z vaqtida bartaraf qildilar.

Harbiy tomondan kuchi yetmagan g'animlar ichki tomondan turli fitnalar chiqarishga o'tishdi. Ular o'z maqsadlari yo'lida turli omillarni ishga solishdi. Hazrati Umar roziyallohu anhuning davrlari boshqa davr edi. U vaqtda Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning tarbiyalarini olgan, turli sinovlarda chiniqqan, iymon va ixlosda tengi yo'q sahobai kiromlar ko'pchilikni tashkil qilar edilar. Ular orqali jamiyat ichida har qanday siyosatni osonlik bilan joriy qilish mumkin edi. Jamiyat a'zolari fitna nimaligini bilmas edilar. Fitna u yoqda tursin, ba'zi Qur'oni Karim va e'tiqod bo'yicha shubhali savollar bergan shaxslarning ham adablari berib qo'yilardi. Ana o'sha umumiy ruh va xalifa Umar ibn Xattob roziyallohu anhuning o'sha ruhdan kelib chiqib yuritayotgan siyosatlari ba'zi bir buzg'unchi tabiatli shaxslarning ham tanobini tortib turar edi.

Ammo vaqt o'tishi bilan sharoitlar o'zgardi. Hazrati Umarning shiddatli siyosatlarini bardavom olib borish qiyin edi. Buni hamma tushunardi. Shuning uchun sahobai kiromlar yangi xalifa saylash vaqtida boshqacha siyosat yurgizadigan shaxsni izladilar. Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuning nomzodlaridan ko'ra Usmon ibn Affon roziyallohu anhuning nomzodlarini ustun ko'rishlariga ham hazrati Alining shiddatlari sabab bo'ldi. Sahobalar "Umarning shiddatidan keyin Alining shiddati qo'shilsa, to'g'ri kelmaydi" degan fikrga bordilar.

Buning ustiga, katta sahobalar kamayib qolgan edilar. Arablarning ichida ham keyin musulmon bo'lgan, Hijozning o'zidan emas, atrofidan bo'lgan qabilalar ko'paygan edi. Eng asosiysi, yashin tezligida tarqalgan fathlar davomida turli xalqlar Islomni qabul qilgan bo'lib, ularda o'zlarining avvalgi dinlari, e'tiqodlari va fikrlari ta'siri hali kuchli edi. O'sha xalqlar ichida xo'jako'rsinga musulmon bo'lganlari ham bor edi. Eng xatarlisi, fitnaboshi Abdulloh ibn Saba'ga o'xshab Islomga ichki tomondan zarba berish maqsadida o'zini

musulmon qilib ko'rsatayotganlar ham yo'q emas edi. Ana shular asta-sekin fitnaga zamin tayyorlay boshladilar.

Asosiy qism: "Ixtilof va fitnalarning boshlanishi"

Ular avvaliga ishni ba'zi voliyar ustidan shikoyat qilishdan boshlashdi. Bu ish birinchi bo'lib Ko'fadan boshlandi. Hazrati Usmon ibn Affon roziyallohu anhu tayin qilgan voliy Sa'd ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhu bilan xaroj omili Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhular o'rtasida voliyning Baytalmoldan olgan qarzini vaqtida to'lashi haqida nizo chiqdi.

Ikkalalariga o'ziga yarasha tarafdor va qarshilar to'plandi. Xalifa voliyi ishdan olib, o'rniga Valid ibn Uqbani qo'ydilar. U kishi o'sha paytda Umar roziyallohu anhu tomonlaridan Hijozning g'arbiy tomoniga voliy etib qo'yilgan yerida ishlab turgan edi. Uni ko'faliklar xursand bo'lib kutib oldilar. Bu ishdan ayniqsa oldingi voliyga qarshi bo'lgan kishilar xursand bo'lishdi. Odatda fitnachilar yangi rahbarning qo'yniga kirishga harakat qilishadi. Bu yerda ham shunday bo'ldi. Yangi voliy hamma bilan yaxshi aloqada bo'lishga harakat qildi. Hamma ishlar yaxshi ketib turganda, bir hodisa sodir bo'ldi. Ana shu hodisa tufayli ishlar boshqachasiga aylanib ketdi.

Bir guruh ko'falik yoshlar birovning uyini teshib kirib, uy egasini o'ldirishdi. Bu ishdan xabar topgan bir qo'shni odam mirshablarni chaqirdi. Ular jinoyatchilarni tutishdi. Ular orasida Zuhayr ibn Jundub Azdiy, Muvarrir ibn Abu Muvarrir Asadiy va Shubayl ibn Ubay Azdiylar bor edi. Mahkamada ularning jinoyatlari sobit bo'ldi va shariat hukmiga binoan qatl etildilar. Ularning otalari va qarindoshlari bu ish uchun voliy Validdan xafa bo'lib, unga qarshi payt poylay boshlashdi. Uning kechkurun olib boriladigan suhbatlari bor edi. Bu suhbatda turli odamlar, jumladan, Abu Zayd Toiy ham qatnashar edi. U asli nasroniy bo'lib, keyin Islomni qabul qilgan va aroq ichish odati bor edi. Bir kuni haligi hasadgo'ylarning oldiga birov kelib: "Validning Abu Zayd bilan xamr tanovul qilishidan xabaringiz bormi?", dedi. Ular ayni shu gapni kutib turishgan edi. Bu gapni birpasda hamma tarafga tarqatishdi. Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhuning huzurlariga borib, bu gapni aytishgan edi, u kishi: "Biz o'zini berkitgan odamning avratini ochmaymiz", dedilar. Valid bu gapni eshitib, xafa bo'ldi. "Sendek odam fitnachi qavmga shunday javob

beradimi?! Men nimani berkitibman?! Bu g‘arib – notanish odam haqida aytiladigan gap”, dedi. Shu bilan ikkovlarining oralariga ham sovuqchilik tushdi.¹

Fitnachilar bu bilan ham kifoyalanib qolishmadi. Dorul xilofaga borib, Validning ustidan shikoyat qilishga qaror qilishdi. Ular ichlaridan ikki kishining guvohlikka o‘tishiga kelishib olib, hazrati Usmon ibn Affon roziyallohu anhuning huzurlariga borishdi. Fitnachilarning safida voliy Valid tomonidan ishdan bo‘shatilgan alamzadalar ham bor edi. Odatda fitnachilarning doimo shunga o‘xshash kishilarni izlab topib, o‘z saflariga qo‘shib olishlari sinalgan tajribadir. Ular borib, o‘z maqsadlariga erishdilar. Voliy Valid ibn Uqba ibn Abu Mu‘ayt chaqirilib, darra urildi va ishdan olindi. Bu ish fitnachilar tomonidan qilingan uydirma edi.

Mazkur ko‘falik fitnachilarga Molik ibn Horis Ashtar Naxa‘iy, Sobit ibn Qays Naxa‘iy, Kumayl ibn Ziyod Naxa‘iy, Zayd ibn Suvhon Abdiy, Jundub ibn Zuhayr G‘omidiy, Jundub ibn Ka‘b Azdiy, Urva ibn Ja‘d, Amr ibn Ja‘d va Amr ibn Hamiq Xuzo‘iylar rahbarlik qilishar edi.

Ular fitna qilib yurib, Sa‘id ibn Os roziyallohu anhuning ham ishdan bo‘shatilishiga erishdilar.

Ammo hamma baloning boshi Misrda edi. Abdulloh ibn Saba‘dek fitnaboshi hamma yerdan quvilsa ham, bu yerda hurmat-e‘tibor topgan edi. U Misrga joylashib olib, o‘z rejasini amalga oshirishga zamin tayyorlar edi. U ko‘pchilik orasida o‘z ta‘limotlarini tarqatib borardi. U odamlarga: “Har payg‘ambarning bir vasiysi bor. Muhammadning vasiysi Alidir. Muhammad xotamul anbiyo, Ali esa xotamul avsiyodir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vasiyatiga amal qilmay, u zotning vasiysiga hamla qilib, ummatning ishini o‘z qo‘liga olgan odamdan ham zolimroq kimsa bormi? Usmon nohaqdan xalifa bo‘lib olgan. Ali Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vasiysi. Unga yordam berish kerak. Bu ishni ado etish uchun qo‘zg‘aling! Har kim ishni o‘z amiriga ayb qo‘yishdan boshlasin. Sirtidan amri ma‘ruf, nahyi munkar qilayotgan bo‘lib ko‘ringlar. O‘shanda odamlar sizlarga moyil bo‘ladilar. Ularni o‘z ishimizga undanglar!” der edi.

¹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Islom Tarixi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – B. 478.

U o‘z targ‘ibotchilarini har tarafga yubordi. Turli joylardagi fitnachilar bilan maktublar orqali xabarlashuvni yaxshilab yo‘lga qo‘ydi. Ular Abdulloh ibn Saba’ga har tarafdan xat yuborib turishardi. Fitnachilar bir-birlari bilan o‘z amirlarini ayblab xat yozishardi. Olgan maktublarini iloji boricha ko‘proq odamlarga o‘qib berishardi.²

Fitnachilar o‘z maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida har qanday pastkashlikdan qaytishmas edi. Ular har bir kishini o‘z saflariga tortishga harakat qilar, har bir holatdan o‘z foydalari uchun biror narsa chiqarishga urinishardi. Endi fitnachilar hazrati Usmon ibn Affon roziyallohu anhuri asosiy mo‘ljal qilib olishgan, u kishini ayblash yo‘lida turli bo‘htonlarni to‘qishar, bu bo‘htonlarni odamlar o‘rtasida tarqatishga jon-jahdlari bilan harakat qilishardi. Soddil musulmonlar ularning bunday bo‘htonlariga qarshi qo‘llaridan kelgan choralarni ko‘rar edilar.

Bo‘htonlar osonlik bilan rad qilinlar, ammo fitnachilar tinim bilishmasdi. Hazrati Usmonga nisbatan qilingan eng katta tuhmatlar ikki qismga bo‘linadi: biri - hukm tarafdan, ikkinchisi - iqtisodiy tarafdan.

Hukm tarafidan bo‘lgan ayblovlar “Atrofiga qarindoshlarini yig‘ib, ko‘pgina yuqori mansablarga ularni qo‘ygan”, degan tuhmat asosida bo‘lgan. Aslida esa Usmon roziyallohu anhu buni qarib qolganlari, yordamchilarga muhtoj bo‘lganlari uchun qilgan edilar, chunki eng ishonchli odamlar qarindoshlar bo‘ladi. Begonadan ko‘ra ko‘proq ularga suyaniladi. Ularning nimalarga imkonlari borligini, qanday ishlarga qodirligini oldindan bilgani uchun ular bilan ishlash oson bo‘ladi.

Iqtisodiy tarafdan bo‘lgan e‘tirozlarga kelsak, ma’lumki, Usmon roziyallohu anhu juda ham boy, qo‘li ochiq, baxillik nimaligini bilmaydigan, Alloh taoloning yo‘lida molining hammasini nafaqa qilib, tarqatgan odam bo‘lganlar. Baytulmolga ega bo‘lganlarida undagi moldan o‘zlari olganlar, qarindoshlariga va so‘raganlarga berganlar. Ba’zi vaqtda isrof bo‘lgan, degan tuhmatlar ham bo‘lgan.

² Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot 22-juz. Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – B. 110.

U kishi Islom yo‘lida barcha mollarini nafaqa qilgan, musulmonlarning, xalifalikning ishi uchun o‘zlarining son-sanoqsiz mollarini sarflagan edilar. Demak, Baytulmoldan hojatlari uchun yoki qiynalmasdan yashash uchun kerakli miqdorda olishga haqlari bor edi.

Fitnachilar mana shu nuqtalarni ushlab olib, hazrati Usmon roziyallohu anhuga qarshi qo‘zg‘alon ko‘tarishdi. Bu ko‘r- ko‘rona fitna keng tarqaldi. G‘azabini tiya olmagan ko‘plab odamlar Madinai munavvaraga kelib, xalifa bilan jangu jadal qilishdi. Ko‘falik, basralik, misrlik fitnachilar Madinaga bir vaqtda kirib kelishdi. Ularning yo‘lini hazrati Ali roziyallohu anhu to‘sisib chiqib, qilayotgan ishlari xatoligini tushuntirdilar, xalifani mudofaa qildilar. Shundan keyin qo‘zg‘alonchilar orqaga qaytib ketishdi.

Fitnaboshilar Madinadan qaytib borishlari bilan xalifaga qarshi chiqishga maxfiy ravishda tayyorgarlikni boshlab yuborishdi. Ular o‘zaro maktub yozishib, o‘zlarini hajga borayotgan qilib ko‘rsatib, Madinada uchrashishga va o‘sha yerda rejalarini amalga oshirishga kelishib olishdi.

Misrliklar to‘rt guruh bo‘lib chiqishdi. Ularning to‘rt amiri bor, sonlari esa ming kishi atrofida edi. Ularning bosh amiri G‘ofiqiy ibn Harb edi. Ular odamlarga urushga ketayotganlarini aytishga jur‘at qilolmay, o‘zlarini hajga ketayotgan qilib ko‘rsatishdi. Fitnaboshi yahudiy Abdulloh ibn Saba’ ham ular bilan birga edi.

Fitnachilar o‘z ishlarining nohaq ekanini bilishadi. Niyatlarini xalq ommasi bilib qolsa, ularning nafratiga uchrashlarini ham yaxshi bilishadi. Shuning uchun asl maqsadlarini yashirib, savobli ishlarni niqob qilib olishadi. Tajribalarning ko‘rsatishicha, hatto o‘zlari bilan ketayotgan kishilarga ham asl niyatni emas, niqob qilib olingan shiorni aytishadi. Ularga odam kerak. Agar asl niyatni bilsa, odamlar aynib qolishlari mumkin. Shuning uchun olib borayotgan odamlariga nisbatan ham aldanchilik qilishadi.

Ko‘falik fitnachilar ham to‘rt guruh bo‘lib, to‘rt amir bilan yo‘lga chiqishdi. Ularning adadlari ham misrliklarning adadicha bor edi. Ko‘faliklarning bosh amiri Amr ibn Asam ismli odam edi.

Basralik fitnachilar ham to‘rt guruh bo‘lib, to‘rt amir bilan yo‘lga chiqishdi. Ularning adadlari ham misrliklarning adadicha bor edi. Basraliklarning bosh amiri Hurqus ibn Zuxayr Sa’diy ismli odam edi.

Ular hijriy 35-yil shavvol oyida uch tomondan Madinai munavvaraga yaqinlashib kelib, uch joyga – basralik fitnachilar Zuxushubga, ko‘faliklar A’vasga va misrliklar Zulmarvaga tushishdi. Ularning niyatlari turlicha edi. Misrliklar: “Ali ibn Abu Tolibni xalifa qilamiz”, deyishardi. Basralik fitnachilar Talhani va ko‘faliklar esa Zubayrni xalifa qilish niyatida edilar.³

Ularning niyatlari turli kishilarni xalifa qilish bo‘lsa ham, hammalari baravariga hazrati Usmon ibn Affon roziyallohu anhuga qarshi edilar. Xo‘sh, bu fitnachi to‘dadagi odamlar kimlar edi? Ular o‘zlari da’vo qilayotganlaridek, dinu-diyonat ravnaqi uchun kurashchilarmidi yoki boshqa odamlarmidi?

Ulamolar ularning kimligini ilmiy asosda juda sinchiklab o‘rganib chiqqanlar. Ana shunday ulamolardan eng mashhuri Abu Bakr ibn Arabiy rahmatullohi alayh “Al- avosim minal qavosim” nomli kitobida quyidagilarni yozadilar:

“Yavmud-dor kuni Islomga qarshi jinoyatda ishtirok etganlar bir necha darajadagi toifalardir:

1. Dinda g‘uluvga ketganlar, ya’ni haddidan oshganlar. Ular arzimagan narsalarni birovga katta ayb qilib qo‘yishdi. O‘zlari esa ularni inkor qilaman deb, halokatga olib boruvchi gunohlarni qilishdi.

2. Qurayshlik katta sahobiylarga qarshi yamanliklarga tarafkashlik qilib, mutaassiblik qilganlar. Bundaylarning Islomda erishgan hech bir muvaffaqiyati yo‘q edi. Shuning uchun Islomda peshqadam bo‘lib, qilgan xizmatlari va fathlari uchun mukofot olgan

³ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Islom Tarixi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – B. 482.

qurayshliklarga hasad qilishdi. O‘zlarining hech qanday xizmati, erishgan muvaffaqiyati bo‘lmasa ham, ular sazovor bo‘lgan martabalarga yetishishni xohlashdi.

3. O‘zlarining ba’zi qarindoshlariga shar’iy jazo qo‘llanganidan darg‘azab bo‘lganlar. Ana shu sababdan ularning qalblari hiqdu hasadga to‘lgan edi.

4. Saba’chilar aqlarining pastligidan foydalanib, fisqu fasod, fitna va buzuvchi e’tiqodlarga boshlagan ahmoqlar edi.

5. Hazrati Usmonning yaxshiligini, odamgarchiligini bilmay, hovliqqan kimsalar edi. Ular o‘zlarining haqlari bo‘lmagan rahbarlik lavozimlarga tama qilib, Usmon roziyallohu anhunging yaxshiliklariga nonko‘rlik qilishdi.

6. Islom odoblariga qarshi ishlar sodir etishgani uchun Hazrati Usmon tomonidan ta’ziri berilganlar edi. Usmon roziyallohu anhu joriy etgan shar’iy ta’zir ularning g‘azabini ko‘zg‘atdi. Ular hazrati Umardan undan ko‘ra shiddatliroq ta’zir yeganlarida ham, jimgina bo‘yinlarini egib yurishgan edi.

7. O‘zlari munosib bo‘lmay turib, rahbarlik lavozimlariga erishishga shoshilganlar. Hikmatlari bo‘lmasa ham, zehnlarning o‘tkirligi va fasohatlari ularni g‘ururga ketkazgan edi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hazrati Usmon roziyallohu anhunging qalbi mehrga to‘la ekani, nihoyatda rahmdilligi ko‘pchilikni tamagir qilib qo‘ygan edi. U kishining mehribonligidan o‘zlarining havoii nafslarini qondirishga vosita sifatida foydalanishdi⁴”.

Ular hazrati Usmon roziyallohu anhunging hovlisini qamal qilishdi. Qo‘zg‘alonchilar Madinaga qaytib kelib, hazrati Usmon roziyallohu anhunging hovlilarini qamal qilishganida, u kishi Madinai munavvarani himoya qilish uchun lashkar yuborishni talab qilib, voliy'larga odam yubordilar. Shunda Madinadagi nizom buzildi, Usmon roziyallohu anhu sahobalardan urush qilmaslikni mahkam turib talab qildilar. Bu bilan o‘zlarining

⁴ Abu Bakr ibn Arabiy. “Al- avosim minal qavosim”. – Qohira: Maktabatus sunna, 1991. – B. 321.

sababidan yomon hodisa bo‘lmasligini ixtiyor qilgan edilar. Madadlar yetib kelishiga oz qolgani to‘g‘risida xabar keldi. Qo‘zg‘alanchilar qo‘rqib, devordan oshib tushib, hazrati Usmon roziyallohu anhuning hovlilariga kirishdi. O‘sha paytda u zot Alloh taoloning **“Kishilar ularga: “Odamlar sizga qarshi kuch to‘pladilar, ulardan qo‘rqinglar”, deganda bu ularning imonlarini ziyoda qildi va: “Bizga Allohning O‘zi yetarli, U qanday yaxshi vakil!⁵ dedilar”** oyatini qiroat qilib o‘tirar edilar.

U kishi ularga e’tibor ham bermasdan tilovat qilaverdilar. Fitnachilar o‘zlarining jirkanch jinoyatlariga qo‘l urishganida ham hech qarshilik qilmay, Allohning Kitobini o‘qiyverdilar. Faqat xiyonat qilichining bir zarbasi qo‘llarini kesganida: “Allohga qasamki, bu qo‘l Qur’on oyatlarini birinchi bo‘lib yozgan qo‘l edi”, dedilar, xolos. Qon otilib, mus’haf sahifalariga tushayotganini ko‘rib, darhol qo‘llarini o‘zlariga tortib oldilar.

Alloma Ibn Kasir “Al-Bidoya van-nihoya”da Islom va musulmonlarning bu ulkan fojiasi qanday sodir bo‘lganini quyidagicha yozadilar:

“G‘ofiqiy ibn Harb u kishiga hamla qilib, temir (qilich) ila urdi va o‘qib o‘tirgan mus’haflarini tepib yubordi. U kishining qonlari mus’hafning ustiga to‘kildi. Savdon ibn Humron qilichini ko‘tarib, hamla qilib kelgan edi, xalifaning xotini yo‘lini to‘sdi. U ayolning panjalarini kesib yubordi. Jinoyatchilar hazrati Usmonni o‘ldirishganidan keyin boshini kesmoqchi bo‘lishgan edi, qizlari va xotinlari Noila va Ummul Baninlar to‘sib qolishdi. Fitnachilardan biri: “Biz uchun uning moli ham xuddi qoni kabi haloldir!” deb qichqirdi. U kishining uylarini talon-taroj qilib, keyin Baytulmolga qarab yurishdi. Qorovullar bilan jang qilib, uni ham talashdi. Bu ish hijriy 35-yil 18-zulhijja, juma kuni sodir bo‘ldi⁶”.

Hazrati Usmon roziyallohu anhu o‘ldirilganlaridan keyin musulmonlar hazrati Ali roziyallohu anhuni o‘zlariga rahbar qilib sayladilar. U kishi buni rad etdilar, lekin

⁵ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim va O‘zbek tilidagi ma’nolar tarjimai. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. Oli Imron surasi, 173-oyat. – B. 72.

⁶ Ibn Kasir. Al-bidoya van nihoya. - Bayrut: Dorul kutubil ilmiya, 2009. - J. XIV. – B. 290

sahobalar mahkam turib olishdi. Ular o‘zlari kirib qolgan boshi berk ko‘chadan chiqishlari uchun Ali roziyallohu anhuning rahbarligi zarurligini yaxshi bilishar edi. Madinai munavvaradagi ahvol juda ham og‘irlashgan, yo‘ldan ozganlar ushbu shaharga ega chiqib olishgan edi. Hazrati Ali roziyallohu anhu o‘zlari qiziqmasalar xam, xalifalikni qabul qilib oldilar.

Imom Tabariy Muhammad ibn Hanafiyyadan rivoyat qiladilar: “Usmon roziyallohu anhu o‘ldirilganida, otam bilan birga uyda edim. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sahobalari kelib, hazrati Ali roziyallohu anhuga: “Bu kishi (ya’ni Usmon roziyallohu anhu) o‘ldirildi. Odamlarga imom (rahbar) lozim. Bugungi kunda bu ishga sizdan ko‘ra haqli odam yo‘q. Sizdan avval Islomga kirgan ham, sizdan ko‘ra Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga yaqin ham yo‘q”, dedilar.

Hazrati Ali: “Unday qilmanglar. Men uchun vazir bo‘lganim amir bo‘lganimdan yaxshidir”, dedi.

Odamlar: “Allohgaga qasamki, sizga bay‘at qilmasdan qo‘ymaymiz”, deyishdi.

Hazrati Ali: “Unday bo‘lsa, masjidga. Menga bay‘at maxfiy bo‘lmasligi, faqat musulmonlarning roziligi bilan bo‘lishi kerak”, dedi. U kishi masjidga kirganida muhojirlar kirib bay‘at qilishdi. So‘ng boshqalar bay‘at qilishdi.⁷”

Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuga xalifa sifatida hijriy 35-yil 25-zulhijja, juma kuni bay‘at qilindi. Bu vaqtda Islom olamida fitna dengiz to‘lqinidek mavj urib turar edi.

Hazrati Ali roziyallohu anhu juda ham qat‘iyat va jazm bilan ish tutadigan, salobatli va haq yo‘lda shiddatli zot edilar. U kishi o‘zlariga bay‘at qilinganidan keyin darhol quyidagi farmon chiqardilar:

Hazrati Usmon roziyallohu anhu qo‘ygan ayrim voliylarni ishdan olish. Ularning ko‘pchiligi Banu Umayyadan edilar.

⁷ Muhammad ibn Jarir at-Tobariy. Tarixul umam val muluk (Tarixut-Tobariy). Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 1987. – B. 463.

Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu ishdan olinganlar o'rniga quyidagi voliylarni tayin qildilar:

Usmon ibn Hunayfni Basraga; Umora ibn Shihobni Ko'faga; Ubaydulloh ibn Mas'udni Yamanga; Qays ibn Sa'd ibn Ubodani Misrga; Sahl ibn Hunayfni Shomga. Tayin qilingan mazkur voliylarning ishlari turlicha bo'lib chiqdi. Bundan ixtilof kuchayib borayotgani ko'rinardi⁸.

Muoviya ibn Abu Sufyon roziyallohu anhu hazrati Umar roziyallohu anhunging davridan buyon Shomning voliysi bo'lib kelar edi. U kishi o'z ishini a'lo darajada bajarar, o'z aholisi ichida juda katta obro'ga ega edi. Muoviya ibn Abu Sufyon roziyallohu anhuga hazrati Usmon ibn Affon roziyallohu anhunging o'ldirilganlari va hazrati Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhunging xalifa bo'lganlari haqidagi xabar yetganda, u kishi yangi xalifaga bay'at qilmadi.

Usmon ibn Affon roziyallohu anhunging rafiqasi Noila binti al-Farofisa roziyallohu anho eri o'ldirilgach, Usmon roziyallohu anhunging qonga belangan kiyimi va erini himoya qilayotgan vaqtda jinoyatchilar tomonidan chopib tashlangan o'z barmoqlarini bir sandiqchaga joylab, Shomga - marhum Usmon ibn Affon roziyallohu anhu mansub bo'lgan Banu Umayya urug'ining rahnamosi bo'lmish Muoviya ibn Abu Sufyon roziyallohu anhuga jo'natadi. Chunki Muoviya ibn Abu Sufyon roziyallohu anhu Usmon roziyallohu anhunging valiysi sanalib, bu bilan Noila xonim Muoviya roziyallohu anhudan o'ldirilgan eri uchun adolatli qasos olishni talab qiladi. Ushbu sandiqchani Zun-Nurayn roziyallohu anhunging o'limi haqidagi xabar bilan birga olgan Muoviya ibn Abu Sufyon roziyallohu anhumu yig'lab, musulmonlarning uchinchi xalifasi uchun qotillardan qasd olishga ont ichadi. U rahmatli Usmon ibn Affon roziyallohu anhunging qonga belangan kiyimini masjidga osib, Shomning nufuzli shaxslarini yig'di-da, o'z amakivachchasi, musulmonlarning uchinchi xalifasi uchun qotillardan qasos olishni talab qilishga da'vat etdi.

⁸ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot 22-juz. Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – B. 110.

Shom ahli birday oyoqqa qalqib, Muoviya ibn Abu Sufyon roziyallohu anhumoga: “Biz sen bilan birgamiz. U sening amakivachchang, sen uning valiysisan, biz esa sen bilan birga Usmon ibn Affon roziyallohu anhu uchun qasos olinishini talab qilamiz”, deyishdi. Ko‘plab ulug‘ sifat sahobalar Muoviya ibn Abu Sufyon roziyallohu anhumoni qo‘llab-quvvatlashdi⁹.

Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu ham qotillardan qasos olish kerak degan fikrni ma’qulladi va shu bilan bir vaqtda, u joriy vaziyatni qasos olish uchun qulay deb topmadi. Buning uchun biroz vaqt o‘tib, mavridi kelishini kutish, so‘ngra qabih qotillikka daxldor jinoyatchilarni aniqlab qatl qilish kerak degan xulosaga bordi. Muoviya ibn Abu Sufyon roziyallohu anhumu esa Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhumning ushbu qarorini ma’qul topmadi. Qotillardan qasos olinmas ekan, Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuga sodiqlik borasida ont ichishdan bosh tortdi. Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu esa Muoviya ibn Abu Sufyon roziyallohu anhudan har qanday ishdan oldin yangi xalifaga sodiq qolish borasida ont ichishni talab qilgancha turib oldi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Islom tarixidagi eng katta fitnalardan biri tashqi dushmanlarning ochiq hujumlaridan emas, balki ichki nizolar va buzg'unchi kuchlarning yashirin faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Hazrati Umar roziyallohu anhumning shahid qilinishi bilan boshlangan bu jarayon keyinchalik Hazrati Usmon roziyallohu anhumning davrida yanada kuchayib, turli tuhmatlar, noto'g'ri targ'ibotlar va fitnachilarning uyushgan harakatlari orqali jiddiy ixtiloflarga sabab bo'ldi.

Fitnachilar din niqobi ostida harakat qilib, musulmonlar orasida ishonchsizlik va bo'linishni kuchaytirdilar. Natijada, Hazrati Usmon roziyallohu anhumning shahid qilinishi kabi ulkan fojia yuz berdi. Bu voqea esa musulmon jamiyatida yanada katta siyosiy beqarorlikni keltirib chiqardi va Hazrati Ali roziyallohu anhumning xalifalik davrida ham davom etgan ixtiloflarga zamin yaratdi.

⁹ Doktor Jihad Turboniy. “Islom ummatining 100 nafar buyk shaxsi”. – Toshkent: Munir nashriyoti. 2021. – B. 320.

Xulosa qilib aytganda, ushbu voqealar musulmon jamiyatida birlik, adolat va hushyorlik naqadar muhim ekanini ko'rsatadi. Ichki fitnalar tashqi dushmandan ham xavfliroq bo'lishi mumkinligi, yolg'on targ'ibot va shaxsiy manfaat ortidan ergashish esa ummatni zaiflashtirishini tarix yana bir bor isbotlaydi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimai". – Toshkent: Hilol Nashr, 2018. – 604 b.
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol". – Toshkent: Hilol Nashr, 2024. – 636 b.
3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Hadis vs Hayot", 22-juz - Usmon va Ali roziyallohu anhumo. Toshkent: Hilol Nashr, 2021. – 333 b.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Hadis vs Hayot", 23-juz – Jannat bashorati berilganlar va ahli bayt. Toshkent: Hilol Nashr, 2021. – 358 b.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Hadis vs Hayot", 32-juz – Fitnalar va qiyomat alomatlari. Toshkent: Hilol Nashr, 2023. – 202 b.
6. Muhammad Said Ramazon Butiy. "Mo'minlar onasi Oisha". Toshkent: Munir nashriyoti, 2022. – 175 b.
7. Doktor Jihad Turboniy. "Islom ummatining 100 nafar buyuk shaxsi". Toshkent: Munir nashriyoti, 2021. – 664 b.
8. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Islom Tarixi". Toshkent: Hilol Nashr, 2018. – 510 b.
9. Doktor Ali Muhammad Sallobiy. "Ali ibn Abu Tolib, Shaxsiyyatuhu va asruhu". Bayrut: Daru Ibnu Kasir, 2015. – 850 b.
10. Ibn Kasir. "Al-bidoya van-nihoya". Bayrut: Daru Ibnu Kasir, 2009. – 580 b.
11. Imom Tabariy. "Tarixur-rusuli val-muluk". Qohira: Dorul-ma'orif, 1987. – 580 b.